
Mahalla yoshlari o'rtasida "Besh tashabbus" olimpiadasining 2-mavsumi davom etmoqda!

Bugun Toshloq tumanida yoshlar orasida sog'lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish maqsadida "Ichki ishlar vaziri kubogi" uchun voleybol musobaqasining sektorlararo bosqichi o'tkazildi. Tadbirda Toshloq tumani hokimi A.Djurabayev va sektor rahbarlari ishtirok etishib, musobaqa ishtirokchilariga omad tiladilar. Musobaqa yakunida 4-sektor hududidan "Bo'ston" mahallasi 2-sektor hududidan "Jorqishloq" mahallasi final bosqichida o'zaro bellashdilar. Murosasiz kechgan baxsda 4-sektor hududidan "Bo'ston" mahallasi yoshlari jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritib keyingi viloyat bosqichiga yo'l oldi.

2024-09-21 16:42:00